



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“XAMSA, EPOS, ROMAN:
NAVOIY VA RABLE”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2026-yil, 23-aprel

Toshkent

“Firdavs-Shoh nashriyoti”

2026

XAMSA, EPOS, ROMAN: NAVOIY VA RABLE

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVA'I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND COMPARATIVE
LITERATURE

Proceedings of the international scientific-theoretical conference titled

**“KHAMSA, EPOS, NOVEL:
NAVOIY AND RABELAIS”**

April 23, 2026

TASHKENT

“FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”

2026

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Xamsa, epos, roman: Navoiy va Rable” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2026-y. – 1064 b.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Túry György (Vengriya), Agnieska Vojta (Germaniya), Sulton Normamatov (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makbal Orazbek (Qozog‘iston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

“Xamsa, epos, roman: Navoiy va Rable” mavzusida o‘tkazilayotgan mazkur xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya milliy adabiyotimizni komparativistik aspektda tahlillash, bugungi va kelajak adabiyotiga doir dolzarb muammolarni global miqyosda tadqiq etishga qaratilgan. Konferensiya materiallaridan tarkib topgan maqolalar to‘plamida jahon adabiyotshunosligi avangard nazariy tafakkuriga xos muammolar to‘rt yo‘nalishda tasniflangan: a) “global poetik tafakkur: Navoiy va Rable ijodiy merosining komparativistik tadqiqi”; b) “Sharq va G‘arb adabiy janrlari tipologiyasi: xamsa, epos, roman”; c) “Sharq va G‘arb adabiyoti tarixiy tipologiya kontekstida” va nihoyat, d) “adabiy komparativistika yosh adabiyotshunoslar talqinida”. Qayd etilgan to‘rt ilmiy muammo nainki, o‘zbek hamda fransuz renessansi asoschilari Navoiy va Rable asarlari, ular ijod etgan adabiy janrlar, ayni paytda, jahon adabiyotini uch zamon kontekstida nazariy tadqiq etish, uyg‘un hodisa sifatida tushuntirishga yo‘naltirilgan.

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami o‘ziga xos metodologik mohiyatga ega bo‘lib, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar, doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, barcha jahon adabiyoti masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil 18-martdagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-229-56-5

Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

© “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2026

UDC (Universal Decimal Classification) 845.711.05

LBC (Library-Bibliographical Classification) 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on “Khamisa, Epos,,
Novel: Navoiy and Rabelais”. – Tashkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2026. – 1064 p.

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo‘raqulov (Uzbekistan), Túry György (Hungary), Agnieszka Wojta (Germany), Sulton Normamatov (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makbal Orazbek (Kazakhstan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne‘mati Lima‘i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Gulnoz Khalliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present international scientific-theoretical conference titled “*Khamisa, Epos, Novel: Navoiy and Rabelais*” aims to study national literature from a comparative perspective and to analyze pressing issues of the present and future on a global scale. The conference proceedings comprise a collection of scholarly articles in which key problems characteristic of advanced theoretical thought in world literary studies are classified into four thematic areas: a) *Global Poetic Thinking: A Comparative Study of the Creative Heritage of Navoiy and Rabelais*; b) *Typology of Eastern and Western Literary Genres: Khamisa, Epos, Novel*; c) *Eastern and Western Literature in the Context of Historical Typology*; d) *Literary Comparativism in the Interpretation of Emerging Scholars*.

These four areas of scholarly inquiry are directed not only at the study of the works of Navoiy and Rabelais – foundational figures of the Eastern and Western Renaissance – as well as the literary genres they cultivated, but also at the theoretical investigation of world literature within a tripartite temporal framework and its interpretation as an integrated and coherent phenomenon.

This conference proceedings possess a distinct methodological significance and is intended for specialists engaged in literary theory, literary criticism, literary history, comparative literature, translation theory and translation studies; as well as for doctoral and postgraduate students, master’s and undergraduate students, and all those interested in issues of world literature.

The collection was recommended for publication by the decision of the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature at its meeting held on March 18, 2026.

ISBN 978-9910-229-56-5

The perspectives of the authors may vary from those of the editorial board.

© “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2026

[8] Ataman, K. Y. (2025). Introduction to Nava'i Academy. In Nurbay Hoja's Notebook (pp. 16–19). Konya: Atlas Akademi.

[9] Dick, G. (2014). Alisher Nava'i: Poet and Statesman. Toronto: University of Toronto Press.

[10] Kılıç, M. E. (2014). Classics of Sufism. Istanbul: Sufi Kitap.

[11] Bertels, Y. E. (1965). Navoi: Opyt tvorcheskoy biografii. Moscow: Nauka.

[12] Levend, A. S. (1965). Ali Shir Nava'i, Vols. 1–4. Ankara: Turkish Language Association Publications.

Orzigul HAMROYEVA,

*filologiya fanlari doktori, professor
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)*

QO'QON VA XIVA ADABIY MUHITI TAZKIRALARINING QIYOSIY

TAHLILI

Annotatsiya. XIX asr oxiri XX asr boshlari adabiy muhitidagi adabiy ta'sir masalasi turli adabiy tur, janr takomili va uslub tendensiyalaridagi an'anaviylik va novatorlikning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Xususan, Qo'qon va Xiva adabiy muhiti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shu bilan birga adabiy aloqadorlikda ham bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Maqolada ushbu adabiy aloqa o'z davrining yirik ijodkorlari Fazliy Namangoniy va Ahmad Tabibiy tazkiralari misolida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: tazkira, devon, g'azal, bayt, nazira, muxammas, adabiyotshunos.

Abstract. This article examines the issue of literary influence in the literary environment of the late 19th and early 20th centuries, which contributed to the emergence of tradition and innovation in the development of various literary types, genres, and stylistic tendencies. In particular, the literary milieus of Kokand and Khiva had a significant impact on each other not only socially, economically, and politically, but also in terms of literary interaction. The article investigates these literary connections through the examples of tazkiras by prominent writers of the period, Fazliy Namangoniy and Ahmad Tabibiy.

Keywords: tazkira, divan, ghazal, bayt, nazira, mukhammas, literary scholar

Qo'qon adabiy maktabi vakillaridan biri Abdulkarim Fazliy Namangoniy XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab ijod etgan mashhur shoirlardan biridir. Fazliy Namangoniydan bizgacha bir qancha asarlari yetib kelgan, uning adabiyotshunoslik tarixida muhim ahamiyatga ega asarlaridan biri "Majmuat ush-shuaro" tazkisasi Qo'qon adabiy muhiti xususida muhim ma'lumot beruvchi tazkiralardan biri bo'lib, she'riy shaklda yozilgani bilan boshqa tazkiralardan farq qiladi. Qo'qon xoni Amir Umarxon tomonidan "malik ush-shuaro" deya ulug'langan Fazliy Namangoniy Qo'qon adabiy muhitida Asiruddin Asxikatiydan keyingi yirik adabiyotshunos, tarixchi sifatida e'tirof etiladi[5, 222-b].

Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida XIX asrning birinchi choragida Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan 80 dan ortiq shoirning hayoti va ijodi haqida ma’ulmot beriladi. Adabiyotshunoslar Fazliy Namangoniyning tazkisasi o‘z davrida juda mashhur bo‘lgani, hatto tazkira tuzilayotgan paytidayoq uning ovozi atrofga yoyilgani, bir qancha kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilganini asos qilib, tazkira qo‘lyozmalarining barchasida bu hisob turlicha ekanligini ko‘rsatishadi. Masalan, V.V.Bartold hisobiga ko‘ra kitobga 101 ta shoirning she‘rlari kiritilgan[6, 75-b]. Tazkira kotiblar tomonidan bir necha nusxada ko‘chirilgani bo‘is tazkira nomlari ham turli manbalarda turlicha keltiriladi. Fazliyning o‘zi ko‘p o‘rinlarda tazkira nomini “Nusxa” shaklida keltirgan. Tazkira Amir Umarxon buyrug‘i bilan tuzilgani bo‘is adabiyotshunoslikda “Majmuat ush-shuaro” nomi bilan mashhur.

Fazliy Namangoniyning tazkirasida o‘zini tazkira tuzuvchilaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Garchi tazkira sarlavhasida nomi aks etmagan bo‘lsa-da, tazkirani tuzishda shoir va tarixchi Mirzo Qalandar Mushrif, Abdunabi Xo‘jandiy(Xotif) ham ishtirok etgan. Bu haqda tazkiraning bir necha o‘rinlarida tasdiqlar kelgan.

Topib zohid atvoridin ishtiboh,
Bu turkiy g‘azalni raqam qildi.
Erur to‘tini shakkarmahol,
Ki andin yetar zavq ahlig‘a hol.
Xudo bergay oni murodin tamom,
Bo‘lub umr ila davlati mustadom.
Bo‘lub dushmani olida poymol,
Sarafkandavu xor-u oshufta hol.
Qayu til bila vasfin aylay bayon,
Hamma yer so‘z andin erur osmon.
Qilib masnaviy Mushrifi notavon,
Kamolini yetti bu yerda bayon.
Xayolingni avval band aylagil,
O‘qub bu g‘azalni pisand aylagil.

Tazkirada Amir Umarxonning “Biri” radifli g‘azalidan oldin Mirzo Qalandar Mushrifning ushbu masnaviysi keltirilgan. Yoki tazkiradagi Junaydullo Hoziq qasidasidan oldin Xotifning Hoziq haqidagi masnaviysi ham yuqoridagi fikrning tasdig‘i bo‘la oladi[2, 179-b].

Biroq Fazliy Namangoniy asosiy tazkira tuzuvchi bo‘lgani bois tazkira sarlavhasida uning nomi keltirilgan.

“Majmuat ush-shuaro” tazkirasida an‘anaviy hamd, na‘t bilan boshlanadi. Hamd va na‘tdan keyin Amiriya she‘riy tavsif beriladi, Amir Umarxonga bag‘ishlangan qasidalar, shoir she‘rlariga naziralar keltiriladi. Debochadan so‘ng Fazliy va Mushriflarning Qo‘qon xoni Umarxonga bag‘ishlangan bahri tavilda yozilgan madhiyalari beriladi. Tazkiraning Debocha qismida Fazliy Namangoniyning she‘r tanlash uslubi, tahlil tamoyillari, adabiyotshunoslik masalalari oid adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan. Xususan, Fazliy Debochada shoirlarni uch guruhga ajratadi:

1. Hamisha shoh majlisida bo‘luvchi ulug‘ shoirlar, pok e‘tiqodli kishilar. Bunday shoirlar shohdan hech narsa ta‘ma qilmaydi. Debochada bunday shoirlar “Sarafrozi sodot” (saidlar ulug‘i) Mahdumi A‘zam Xo‘ja Kalon, Said Ahror avlodlaridan bo‘lgan, suxan bog‘ining xushnavo bulbuli Ado, Xo‘jayi Komkor va boshqalar “mulki ma‘niyda sulton”, “so‘zi kashfi savti karomat” sifatida ta‘riflanadilar.

Guruhi buzurgoni oliy maqom,
Ki hastand dar majlisi shah mudom.
Haqoyiq shioroni neku xisol,
Maorif shunosoni sohibkamol.
Hidoyat panohoni oliy najod,
Studa azizoni pok e‘tiqod[1, 22-b].

2. Ilohiyotni kuylovchilar, Alloh hamdi bilan shug‘ullanuvchilar.
Xo‘jasta guruhi maloik misol,
Ki dorand bohamdi haq ishtig‘ol.

Fazliy bunday guruhga kiruvchi shoirlar adabiyot tarixida ko‘p ekanligini ta‘kidlab, Mavlaviy ijodi misolida bunday shoirlarga hurmati balandligini aytadi.

3. Saroy shoirlari. Bunday shoirlarning maqsadi shohdan nimadir undirish, undan mukofot, ehson umidvor. Afsuski, shoh oldida bu toifa yetarlicha topiladi.

Hama bar dari shoh farmonpazir,

Namakxo‘ri xoni atoyi Amir.

Tazkira qurilishi muallif – Fazliy Namangoniyning o‘ziga xos uslubi borasida qimmatli ma’lumotlarni bera oladi. Tazkira ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi qismi faqat forscha qasidalarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qismi esa shoirlarning forscha va o‘zbekcha g‘azallari, muxammaslari, musaddaslari va ruboiylaridan iborat[4, 13-b].

Tazkiradagi adabiy parchalar janr imkoniyatiga ko‘ra g‘azal, ruboiy, muxammas, musaddas, mutassa’, mustazod, masnaviy, bahri tavil, qasida, ta’rix, muammo, mufradot, muammo, mushoiralardan iborat.

“Majmuat ush-shuaro” tazkirasida *Amir Umarxon, Fazliy, Gulxaniy, Maxmur, Shermuhammad Akmal, Vazir, Asad, Ado, Xotif, Xijlat, Mushrif, G‘oziy, Muzmar, Foniy, Hoziq, Munshiy, Jadid, Sharif, Toyib, Uvaysiy, Mahzuna, Mujrim* kabi shoir, shoirlar ijodidan namunalar keltiriladi. Tazkirada she’rlar taqsimoti o‘ziga xos uslubda berilgan: dastlab Amir Umarxon g‘azali keltiriladi, undan so‘ng boshqa shoirlar tomonidan g‘azalga bog‘langan naziralar taqdim etiladi. Asarda XIX asrning birinchi yarmida Amir Umarxon zamonida saroyda turli hududlar: Buxoro, Hirot, Andijon, Marg‘ilon, Samarqand, Toshkent, Xo‘jand, Balx, Qoshg‘ardan kelgan shoir, ijodkorlarning fors-tojik, turkiy tildagi she’rlari jamlangan[5, 224-b].

Tazkirada keltirilgan adabiy parchalar, lirik janrlar ko‘lami shuni ko‘rsatadiki, XIX asr boshlarida g‘azal va qasida janrlari yetakchi janrlardan biri bo‘lgan. G‘azallarga tatabbu’, nazira, taxmis, tasdis bog‘lash adabiy an‘ana sifatida Qo‘qon adabiy muhitining asosiy xususiyatlaridan biri sanalgan. XIX asrgacha oz uchraydigan muxammas-qasida, hasht dar hasht-qasida, mutassa’-qasida kabi janrlar ham ko‘zga tashlanadi[2, 180-b].

Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” tazkisasi she’riy tazkira bo‘lgani bois tazkiradagi matnning asosini to‘liq shakldagi she’riy asarlar tashkil etadi. Muallif ba’zi o‘rinlarda asar mualliflari haqidagi ma’lumotlarni qisqa shaklda masnaviyalarda

berib ketadi. Shoirlar haqidagi masnaviylarning hajmi ham turlicha, ba'zi masnaviylar 2, 3 bayt ko'rinishida bo'lsa, ba'zi shoirlar tavsifiga bag'ishlangan masnaviylar 11-15 baytni tashkil qiladi. Tazkiradagi masnaviylar boshqa janrlar singari ikki tilda: fors-tojik va turkiy tilda keltirilgan. Masalan, tazkirada Ado ta'rifi turkiy tildagi masnaviy orqali ochib beriladi.

Ushbu bir g'azal ham Adodindur,
O'shal bulbuli xush navodindur.

Qilib ushbu bahri alifg'a shino,
Dedi bu g'azal payravi podsho.

Mazomanin elga namoyon etib,
Iboratining sof uryon etib[1, 64-b].

Tazkirada keltirilgan she'riy asarlar, payravlar ma'lum tartibda arab alifbosi harflari tartibida keltirilgan. Masalan, asarning ikkinchi qismi Muqaddimasidan so'ng Alif harfi bilan tugovchi payravlar bilan boshlangan. Amir Umarxonning "*Ey niholi sarvi qad, v-ey gulbuni bog'i vafo*" deb boshlanuvchi g'azaliga Ado, Vazir, Xotif, Xijlat, Mushrif, Fazliy, Bahjat, G'oziy, Muzmar kabi shoirlarning javob g'azallari keltiriladi. Undan so'ng "jim" harfi bilan tugovchi g'azal-payravlar beriladi. Tazkirada bir shoir nomi bir necha marotaba uchraydi. Chunki tartib shoirlar ismi, hududi yoki davriga qarab emas, arab harfi bilan tugovchi g'azallarga qarab belgilangan. Xususan, Fazliyning o'zi arab harfi bilan tugovchi barcha g'azallarga javob aytgan. Fazliy bir shoirning bir necha harflarga tugovchi g'azallarini keltirsa ham, har biriga alohida munosabat bildiradi.

Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida Fazliy va shoira Mahzunaning savol-javobi shaklidagi g'azal keltiriladi. Bu savol-javob "ko'rmay" radifi asosida ikki ijodkor: Fazliy va Mahzuna uslubini ochiq ko'rsatib bergan.

Ko‘rinib turibdiki, XIX asrga kelib tazkira tuzish, tartib berish shakli va vazifasi bir qadar o‘zgarishga yuz tutgan. Tazkiralarda bu o‘zgarish bayoz va majmualarning yaratilishiga poydevor bo‘lgan.

O‘zidan oldingi tazkiranavislik an‘analarini davom ettirgan tarjimon, shoir, olim Ahmad Tabibiyning ikki tazkirasi: “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” va “Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkiralari Xiva adabiy hayoti va saroydagi adabiy jarayon va adabiy ta’sir masalalarini o‘zida aks ettira olgan muhim manbalar sirasiga kiradi. Ahmad Tabibiy “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkirasini 1907-1908-yillar oralig‘ida yozib tugallagan. Tazkiraning Xotima qismida tazkiraning yozilgan sanasi alohida qayd etib o‘tilgan:

Qilib bir yil kom ila ehtimom,

Borsin o‘zim jam’ qildim tamom.

Ming uch yuz yigirma dag‘i olti yil

Muharramning o‘n to‘qquzi erdi bil.

Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkirasi tarkibiy tuzilishi jihatdan Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasiga o‘xshaydi. Fazliy tazkirasini Amir Umarxonga bag‘ishlab tuzgani bois “Majmuat ush-shuaroyi Umarxoniy” yoki “Majmuat ush-shuaroyi Amiriy” nomi bilan, Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasi esa Feruzga bag‘ishlangani bois “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” nomi bilan ataladi. Ahmad Tabibiy har jihatdan Fazliy tazkirasi uslubini o‘zlashtirishga harakat qilgani tazkira tuzilishi, tasvir vositalari, shoirona tashbihlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ahmad Tabibiy tazkirasining Debocha qismi(152 bayt masnaviy) xuddi Fazliy tazkirasi Debochasi singari o‘zida adabiy-tarixiy va nazariy masalalarni aks ettirishi bilan qimmatlidir. Ahmad Tabibiy tazkirasining Debocha avvalida an‘anaviy tarzda Allohga hamd-u sanolar o‘qiladi, payg‘ambar va uning sahobalari madh etiladi, so‘z va so‘z san’atining insoniyat hayotidagi ahamiyati borasida fikrlar keltiriladi. Madh Feruzga ko‘chadi. Muallif tazkiraning yaratilish tarixiga to‘xtaladi va Feruzning lutfidan “xurram-u shodmon” bo‘lganligini zo‘r mamnuniyat bilan ma’lum qiladi. Va

tazkirada nomlari zikr qilingan shoirlarga qisqa ta'rif berib ketadi. Muallif asar Debochasida 30 shoir nomini zikr qiladi. Shu sabab tazkirani "Majmuayi ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" ("Feruzga payravlik qilgan o'ttiz shoir majmuasi") deb nomlagan.

Tazkira Fazliy tazkirasi singari boshlanadi, ya'ni muallif dastlab Feruz g'azalini taqdim qiladi, so'ng ushbu g'azalga bog'langan payravlarni keltiradi. Fazliyning "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida shoirlarning 10 ga yaqin janrdagi asarlaridan parchalar keltirilgan bo'lsa, Ahmad Tabibiy tazkirasida faqat g'azal janriga oid namunalar keltiriladi. Tabibiy Feruz g'azallariga bog'langan taxmislar uchun maxsus "Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy" tazkirasini yaratgan.

Ahmad Tabibiyning "Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy" tazkirasining Asosiy qismi Muhammad Rahimxon II – Feruzga bag'ishlangan masnaviy va uning

Zihi bordur zuhuringga azal birla abad paydo,

Tafakkur aylabon zoting qila olmas xirad paydo, –

matla'li g'azali bilan boshlanadi. So'ngra Said Nosir to'ra (Sultoniy), Said G'ozii to'ra (G'oziy), Sayid Asad to'ra (Asad), Muhammad Yusufbek (Bayoni), Otabek to'ra (Oqil) kabi she'riyatsevar xonzodalarning hayoti va ijodi haqida masnaviy-ma'lumotlar beriladi va ijodlaridan namunalar keltiriladi. Navbatdagi sahifalarda esa xonning yaqin kishilaridan bo'lgan, ko'zga ko'ringan saroy amaldorlari, mansabdor shaxslar – mirzaboshi Muhammad Rasul (Mirzo), Bayoniyning ukasi, Urganch hokimi, vazir Shayxnazar (Shinosiy), xonning mahrami Davlatmurod (G'ulomiy), Mirzoning ukasi Abdurasulboy (Purkomil), Otanazar mutavalli (Kamoliy), Muhammad Niyoz devon (Umidiy), mufti Yusuf Hoji oxund (Doiy), mufti Xudoybergan oxund (Ojiz), Muhammad Sharif oxund (Haqiriy), Otaniyoz oxund (Niyoziy), Habibullo domla (Habibiy), Ibodullo oxund (Xokiy), Mulla Yusuf (Yusuf), hakimboshi Ahmad Ali Muhammad o'g'li (Tabibiy), devonbegi, bojbon Muhammad Husayn (Nozir), Muhammad Nazar Maxdum (Xayoliy), Muhammad Rahim Maxdum (Rog'ib), naqqosh Muhammad Komil Devon (Devoni), Muhammad Hasan devon Hoji Tabib o'g'li (Mutrib Xonaxarob), xattot Muhammad Yusuf (Chokar), Bobojon Tarroh devon

(Xodim), saroy kotibi Inoyat hayoti va adabiy faoliyati borasida gapirilib, she'rlaridan namunalar beriladi. Tabibiy endigina nazm bo'stoniga kirib kelayotgan yosh iste'dodlar kelajagiga katta umid bilan qarab, madrasa talabalari Muhammad Niyoz Maxdum (Muznib), Bolta Niyoz (Nadimiy), Pahlavon O'tar o'g'li Avaz kabilarning nazmiy iqtidorlari xususida ham fikrlar bildiradi va nomlari tilga olingan shoirlarning payrav g'azallarini havola qiladi[3, 34-35-b]. Fazliy Namangoniy boshlab bergan bu tartib, Feruzning 101 g'azaliga payravlar keltma-ketligi Tabibiy tazkirasida ham shu mezon asosida davom ettiriladi.

Ahmad Tabibiy tazkirasida ham xuddi Fazliy tazkirasidagi singari shoirlar va ularning she'riy asarlari davr ketma-ketligida emas, abjad hisobida arab harflari tartibi bilan joylashtirilgan. Har ikki tazkirada ham har bir namuna – she'rdan oldin uning muallifi haqida masnaviy yo'lida she'riy ma'lumotlar havola etiladi. Ular aruzning mutaqoribi musammani maqsur (*fauvlun, fauvlun, fauvlun, fauwl*) vaznida yozilgan. Har ikki tazkira bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar bu ikki tazkiradagi so'zlar qoliplari borasida juda katta o'xshashlik borligini ta'kidlashadi.

“Majmuat ush-shuaro”da:

Erur Foniy ul fozili hushmand,

Oning so'zlaridur base dilpiland.

“Majmuat ush-shuaro”da:

Erur Oqil ul fozili hushmand,

Oning so'zlaridur base dilpiland.

Ijodkorlarga nisbatan “shoiri xoksor”, “shoiri shirinsuxan”, “sohibi ilm-u fan”, “shoiri bebadal”, “shoiri nuktasanj”, “fozili hushmand” kabi tashbihlarning qo'llanilishida ham bir xillik ko'rinadi[3, 34-35]. Yoki

“Majmuayi shoiron”da:

Dedi bu g'azalni o'shal nuktadon,

Erur payravi xisravi komron.

“Majmuat ush-shuaro”da:

Bo'lub payravi xisravi komron,

Dedi bu g'azalni hamul nuktadon.

Fazliy tazkirasida shoirning g'azal tanlash, she'r tanlash uslubi ko'zga tashlanadi. Chunki u Amiriy va boshqa shoirlar she'riy asarlarini o'zining badiiy va ilmiy salohiyatiga qarab tanlagan. Afsuski, Ahmad Tabibiy tazkirasidagi g'azallarni o'zi tanlamagan. *“Ali Mahramning Ahmad otlig' bir o'g'li bor edi. U ham Tabibiy taxallusi birla she'r aytmoqqa boshladi. Xon hazratlari o'z g'azallaridan yuz g'azalni shoirlarga berib, buyurdilar: bunga payravlik aylab, g'azallar bitinglar! Har biri anga payravlik aytib, yuz g'azal bitdilar. Xon hazratlari Tabibiyga amr etdilar, tokim ul g'azallarni masnaviy zimmida jam' qilib, bir kitob etkay. Tabibiy farmoni mu'jib bila amal qilib, ul g'azallarni jam' qilib, tamom etib, ul kitobg'a “Majmuat ush-shuaro” ot qo'yildi”.*

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tazkirada nomlari zikr etilgan shoirlarning barchasi sohibi devondirlar. Feruz saroyidagi she'riy kechalarda ishtirok etgan bu shoirlar adabiy muhitda ozmi-ko'pmi o'z ijodiyoti bilan qatnashayotgan, nozik ta'b shoirlar bo'lgan. *“Majmuat ush-shuaro”* asari payravlar va asarning tarkibiy tuzilishiga ko'ra tazkiradan ko'ra ko'proq shoirlar haqida qisqacha sharh – ma'lumotnoma ilova qilingan bayozga yaqin turadi[2, 189-b].

Ahmad Tabibiy tazkirada saroy shoirlari, shaxzoda shoirlar va ularning ijodiy salohiyati borasida haqli fikrlarni keltiradi. Tabibiy keltirilgan ma'lumotlar u bilan davrdosh Hasanmurod Laffasiy, Yusuf Bayoniy, Bobojon Tarroh – Xodim asarlarida o'z tasdig'ini topgan. Tabibiy Feruzning she'r ilmidagi nozik ta'bi bilan birga uning ijtimoiy hayotdagi faoliyati: yangiliklarni olib kirishi, o'z aholisini har jihatdan savodli, ilmi qilish borasida turli sohalarda olib borgan islohotlari xususida batafsil to'xtaladi[5, 129-b].

Tabibiy Feruzning nevaralaridan biri Sa'dulla to'ra va uning ijodiy salohiyatiga yuqori baho beradi. Shoir she'rlarining mvzusi, obrazlar tizimi, shakl xususiyatlari xususida olimona fikr yuritadi. Ma'lumki, Sa'diy adabiy faoliyat bilan jiddiy shug'ullangan. Feruzga ergashib she'riy devon ham tartib bergan. Tabibiy ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, *“Hama nazm-u nasri dilpazir, Hama nav' she'r*

ichra mohir” shoir bir-biridan dilbar abyotlar bitgan, she’riyatning turli janrlarida qalam tebratgan.

“Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkirasida Avaz O‘tar shaxsiyati va ijodiga oid munosabatlar bir necha o‘rinlarda keladi:

Avazkim erur shoiri dilfirib,
Berur nazmga har nafas zayn-u zeb.
Itoat tariqida mohir erur,
Dema shoir oniki, sohir erur.

Tazkira muallifi Avaz O‘tarni shoirlarning “sohir”i ekanligini e’tirof etmoqda. Tazkiraning ba’zi o‘rinlarida bu e’tirof tanqidiy ko‘rinishda keladi:

Avaz shoir o‘lmoq qilib muddao,
Qavoid bilan nukta qilmas ado.
Na chorakim, yo‘q ilmi hido ango,
Vale bu g‘azal keldi da’vo ango.
Yoki
Avazkim erur shoiri kam xirad,
So‘zini o‘zi tutg‘usi mo‘tamad.

Tazkirada keltirilgan Avaz O‘targa berilgan ikki xil baho saroydagi ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liqligi boshqa manbalarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fazliy namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” hamda Ahmad Tabibiy “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy”, “Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkiralari o‘ziga xos an’anaviy qurlishiga ega bo‘lib, Xiva adabiy muhiti va shoirlari, adabiy jarayon, Qo‘qon va Xiva xonligi adabiy aloqalari, adabiy ta’sir masalalarini o‘rganishda birlamchi manbalar sifatida ahamiyatli.

Adabiyotlar

1. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. Majmuat ush-shuaro. – T.: Fan. 2018.
2. Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O‘zbekiston. 1993.
3. Matkarimova S. Tabibiy – tazkiranavis. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. – T., 2007.
4. Hasaniy M. Fazliy Namangoniy va uning “Majmuat ush-shuaro” kitobi haqida // Abdulkarim Fazliy Namangoniy “Majmuat ush-shuaro”. – T.: Fan. 2018.
5. Hamroeva O.J. Adabiyotshunoslik tarixi(O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi) Darslik. 1-qism. -T.: Bookprint. 2026.
6. Xalilbekov A. Namangan adabiy muhiti. – T.: Ruhafzo, 1998.
7. Жўрақулов У., Халлиева Г., Қосимов А. Қиёсий адабиёт шунослик. – 2025.
8. Джурақулов У. Х. ПЕРВЫЙ ДАСТАН" ПЯТЕРИЦЫ" АЛИШЕРА НАВОИ И ПРОБЛЕМА УНИВЕРСАЛЬНОГО ХРОНОТОПА. – 2022.
9. Jo‘raqulov U. Qodiriy va roman tafakkuri // Toshkent" Nurafshon business. – 2020.

СОДЕРЖАНИЕ

Шухрат Сирожиддинов
Гуманизм Ренессанса 5

СЕКЦИЯ I

**ГЛОБАЛЬНОЕ ПОЭТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ: КОМПАРАТИВИСТ-
СКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ НАВОИ И
РАБЛЕ**

Узок Журакулов
Хамса и роман: метафора пути 10

Сувон Мели
Два принца: Фархад и Гамлет 48

Гайрат Муродов
Роль народного смеха в романах Рабле и Абдуллы Кадыри 55

Тюри Дьёрдь
Нарративная журналистика в Центрально-Восточной Европе: к региональной
перспективе 60

Усмон Кобилов Уролович, Дилноза Маманова Уктамовна
Интерпретация мотива бодрствования в диване Алишера Навои «Наводир
ун-нихоя» 69

Ж.Т. Карипбаев
Рецепция наследия Алишера Навои в казахском литературоведении: исто-
рико-хронологический и структурно-семиотический анализ 74

Ульжан Каршибаева, Шохсанам Холманова
Художественные персонажи и их психологическая интерпретация в романе
«Госпожа Бовари» 84

Сеййиде Шифа Гёкташ, Семанур Кочер
Психология героя и структура повествования в жанрах эпоса, романа и
хамсы: сравнительное исследование на материале произведений Алишера
Навои 90

Гульноза Халлиева
Востоковедение и микрокомпаративистика 98

Дилнавоз Юсупова Алишер Навои и Абдуллатиф Латифий: интерпретация четырёх времён года	104
Айнур Найманбай Рахымберди кызы Духовное созвучие произведений А. Навои и А. Кунанбаева	120
Манзар Абдулхайров Сравнительно-типологический анализ соотношения внешнего и внутреннего облика в творчестве Навои и Рабле	130
Маргуба Абдуллаева Гармония поучения и повествования в «Хайрат ул-аброр»	138
Олмос Хуррамов Использование метафоры в газелях Алишера Навои	144
Комилжон Хамраев Фольклорные традиции в романе «Гаргантюа и Пантагрюэль»	150
Зарина Рахмонова Интерпретация войны и мира в творчестве Навои и Рабле	163
Ёркиной Насирдинова Поэтика хамсы и романа у Навои и Рабле	168
Юлдуз Зияева Хронотоп воды в романе «Гаргантюа и Пантагрюэль»	171
Ёркиной Насирдинова Эволюция эпического сознания в литературе Восточного и Западного Воз- рождения: Алишер Навои и Франсуа Рабле	176
Марвар Шарафутдинова Ренессанс: два зеркала гуманизма — Навои и Рабле	180
Нодира Худойназарова От Средневековья к Возрождению: Навои и Рабле	186

ОТДЕЛ II.

ТИПОЛОГИЯ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЖАНРОВ:

ХАМСА, ЭПОС, РОМАН

Нурбой Жабборов Новые критерии подхода к интерпретации «Хайрат ул-аброр»	193
Никаноров Сергей Анатольевич К вопросу о способах выражения метафоры в сборнике «Сокровищница мыслей» Алишера Навои	207
Şeyda Naciye Ötegen Cuma, Yıldız Polat Концепция совершенного человека в книге проф. д-ра Дилнавоз Юсуповой «Жизнь и литературное искусство Алишера Навои»	212
Нусратулло Жумаходжа Прославление науки и мышления в произведениях Алишера Навои	219
Зухра Мамадалиева. Греческие философы — символы мудрости и знания	225
Фархад Рахими Высказывания о Низами в произведении «Лугат-и атракийе»	229
Кулдош Пардаев Роль мастерства Навои в творческом становлении Муками	249
Кахрамон Тухсанов, Умринисо Тураева Вопросы изучения творчества Алишера Навои	255
Фарруха Валиходжаева Дискурсивная интерпретация творчества Навои, Пушкина и деятелей западного Возрождения	259
Шермухаммад Аманов Традиции Алишера Навои в творчестве Ахмада Табибия	265
Селенай Шахин «Тетрадь Нурбая Ходжи» Нурбая Джаббарова и поэтическая вселенная Алишера Навои	274

Орзигул Хамроева Сравнительный анализ тазкир литературной среды Коканда и Хивы	281
Махмадиёр Асадов Раблеведение во Франции	292
Озода Тожибоева Время и пространство в любовных газелях	307
Хафиза Асланова Образ Мавлоно Гадои в произведениях Алишера Навои	314
Норбиби Рузимуротова Марсии Алишера Навои, посвящённые его наставнику Абдурахмону Джами	318
Абдурасул Эшонбобоев Н.И. Конрад «Восточное Возрождение и Алишер Навои»	322
Бейза Озер Ирфаническая архитектура «Хамсе»: типологическое исследование книги Нурбая Джаббарова «Ирфанический мир Алишера Навои»	332
Машхура Хасанова «Хилолия» Алишера Навои и назирь к ней	337
Турсунтош Эшбоева Восточная поэзия на западном языке: на примере газелей Навои	345
Мадинабону Ихтиёрова, Сарварбек Олимжонов Поэтическая и философская интерпретация концепции счастья в творчестве Алишера Навои	351
Ёркиной Насирдинова Художественное мышление Восточного и Западного Возрождения: сравни- тельная интерпретация творчества Навои и Рабле	354
Дилнавоз Бойзокова Интерпретация образа пророка Юсуфа (а.с.) в творчестве Алишера Навои	357
Нурбек Нурадуллаев Краткий обзор истории узбекско-французских литературных связей	363

Дилнавоз Наджимова Антология и её поэтические каноны	367
Дилрабо Бекмирзаева Стиль и поэтическое мастерство в «Хайрат ул-аброр»	373
Мавлюда Каримова «Хамса» Навои в интерпретации поэта Омона Матжона	375
Аброржон Неъматов Буквенные художественные приёмы, использованные в «Хамсе» Навои.....	379
Угиллой Ахмадова Интерпретация религиозно-просветительского мышления в современной уз- бекской литературе	385
Абдугани Насриддинов Горизонты навоиведения	389

СЕКЦИЯ III

ВОСТОЧНАЯ И ЗАПАДНАЯ ЛИТЕРАТУРА В КОНТЕКСТЕ ИС- ТОРИЧЕСКОЙ ТИПОЛОГИИ

Dr. Kemal Yavuz Ataman Размышления о поэтах-суфиях	399
Орда Гүлжахан Жұмабердіқызы Отражение жизненной правды 1990-х годов в художественной литературе	407
Erkin Musurmanov Интерпретация образов яйца и Тенгри в узбекской и китайской мифологии	423
Usmon Qosimov Бессмертное литературно-эстетическое учение	427
Yulduz Karimova «Бабурнаме», «Звёздные ночи», «Андижанский принц»: сравнение и интер- претация	434

Islomjon Yaqubov Новая художественно-стилистическая интерпретация образа Сизифа в контексте восточно-исламской философии	441
Олим Олтинбек Некоторые поэтические средства в стихах Рауфа Парфи	451
Zh. Ibragimov Традиция Ходжи Ахмеда Ясави и её место в тюркской литературе	466
Gulbahor Ashurova Творец, воспевающий страну слова	485
Бактыгүл Исмаилова Теоретико-эстетические основы проблем традиционности и новаторства в кыргызской литературе	499
Gulnoz Xalliyeva, Iroda Abdullayeva Сатирическое изображение человеческих слабостей в английской и узбекской литературе	506
Tozagul Matyoqubova Гармония пейзажа и душевного состояния лирического героя в поэзии Гафура Гуляма	517
Исмаилова Б.Т., Замирбек К. Алмагүл Стилевые особенности прозы Кубатбека Жусубалиева: поэтика, психологизм и художественно-новаторский подход	523
Мустафо Байэшанов Восточные реалии в повести Л. Н. Толстого «Хаджи-Мурат»	531
Sohiba Umarova Исследование диванов поэтов-принцев в литературной среде Хорезма	550
Kuchkarova Xafiza Прочитав и осмыслив произведение «Голландские женщины»	555
Ш.Э. Нагиева Концепт времени в языке и его выражение в поговорках	558

Ma'suma Obidjonova Теоретические основы сравнительного изучения научно-фантастических произведений	568
Nasiba Norova О стихотворении Зебо Мирзо «Письмо Навои».....	578
Faizulla Toltay Деконструктивистский анализ текста «Цикада и муравей»	584
Senbek Utebekov Временные аффиксы в чагатайском тексте XIX века о Чингисхане и Тимуре	598
Azamat Xayrullayev Стилистическое своеобразие рассказов Нормурода Норкобилова	606
Жусуева С.К., Келдибаева А. Технология интегрированного преподавания кыргызской литературы.....	616
Исмаилова Б.Т., Таабалдиева С.Б. Философские идеи в произведениях современных акынов.....	625
Мария Бекбергенова Типология эпического жанра в творчестве Бердаха	635
Maftuna Norqulova Художественные особенности повестей Ахмада Аъзама	641
Ayimxan Eshniyazova Литературное влияние как художественно-эстетическое явление	652
Sanobar Saydazimova Паранормальные эпизоды: религия, миф, архетип	659
Hoshimjon Ahmedov Роман «Не бойся»: идея произведения, проблема исторической и художественной правды	667
Нуриддин Убайдуллаев Интерпретация классических традиций в романе «Упадок»	675

Ozoda Maxkambayeva Рефлексивная практика как катализатор профессионального развития: повышение педагогической компетентности преподавателей литературы в высшем образовании	683
Jurabek Islomov Гармония психологии, конфликта и сценического мышления в драме «Ардахива»	687
Мохирахон Ибрагимова Восточные и западные традиции модернизма: особенности художественной речи в сравнительном освещении	692
Malika Suyunova Изучение драмы в узбекском литературоведении	700
Farangis Axtamova Основоположник тюркского тазкироведения	704
Quvonchbek Mamiraliyev Некоторые соображения о смешении жанров в узбекской поэзии	707
Sevinchoy Yoqubova Образ историко-литературных героев в джадидской поэзии	711
Mahbuba Norova Национально-суфийские факторы поэзии Юнуса Эмре	717
Intizor Umarova Мифологическая интертекстуальность в романе Омона Мухтора «FFU»	724
Shukrulloxon Sherqo‘ziyev Концепт жизни в узбекских народных пословицах	728
Dinoraxon To‘g‘onova «Гамлет» и «Шекспир» в XVI–XXI веках: от традиционности к современности	732
Davron Ulug‘murodov Социальная трагедия или «польза» интернета и гаджетов	736
Ahror Kadirov Понятие «потерянного поколения» в западном художественном мышлении	741